



## BELIBOYLI QISHLOG'INING KELIB CHIQISHI VA URUG'LAR TASNIFI

Almatov Dilbek Shokir o'g'li

Termiz davlat pedagogika instituti

Pedagogik va ijtimoiy fanlar fakulteti, Tarix ta'lim yo'nalishi

3-bosqich, 23-01-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20685396>

### ARTICLE INFO

Received: 1st June 2026

Accepted: 5<sup>th</sup> June 2026

Published: 13<sup>th</sup> June 2026

#### KEYWORDS

*Qashqadaryo viloyati, Dehqonobod tumani, Beliboyli qishlog'i, Beliboyli ota qabristoni, Beliboyli ota jome masjidi, Qo'ng'iro't urug'i, Terskay qishlog'i, Galamulla qishlog'i*

### ABSTRACT

*Mazkur maqolada Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida joylashgan Beliboyli qishlog'ining geografik joylashuvi, tarixiy kelib chiqishi, xo'jalik faoliyati hamda aholining urug'-aymoq tarkibi yoritiladi. Shuningdek, qishloq nomining etimologiyasi va Qo'ng'iro't urug'iga mansub aholi qatlamlarining shakllanish jarayoni haqida ma'lumot beriladi. Maqolada Qashqadaryo viloyati va Dehqonobod tumanining geografik, tarixiy va ma'muriy xususiyatlari ham tahlil qilinadi.*

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning ta'biricha: "O'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutkan millatning kelajagi yo'q". Ushbu qoida har bir o'zbek fuqarosi o'zi yashab turgan hududning tarixini chuqur bilishi lozimligini ko'rsatadi. Darhaqiqat, ajdodlardan qolgan qadriyatlarni asrab-avaylash, ularni yosh avlodga yetkazish har bir jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

Beliboyli qishlog'ining tarixiy ildizlari, ajdodlar merosi va urug'chilik an'analari naqadar muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Beliboyli aholisi o'zining boy tarixiy merosi, mustahkam qarindoshlik rishtalari va mehnatsevarligi bilan kelajak avlodlar uchun munosib namuna bo'lib kelmoqda.

Qashqadaryo viloyati — O'zbekiston Respublikasi tarkibidagi qadimiy va tarixan boy viloyat bo'lib, 1924-yil 1-noyabrda tashkil etilgan. U O'zbekiston tarkibida eng birinchi tashkil etilgan viloyat hisoblanadi. Viloyat respublikaning janubiy-g'arbiy qismida, Qashqadaryo vohasida, Pomir-Oloy tog' tizmasining g'arbiy chekkasida joylashgan. Shimoliy-g'arbdan Buxoro va janubiy-sharqdan Surxondaryo viloyatlari, janubiy-g'arb va g'arbdan Turkmaniston Respublikasi, sharqdan Tojikiston Respublikasi hamda Samarqand viloyati bilan chegaradosh.

Viloyatning umumiy maydoni 28,5 ming km<sup>2</sup> bo'lib, 2026-yil 1-yanvar holatiga ko'ra aholisi 3 million 717 ming 949 kishini tashkil etadi. Viloyat hududida 14 ta tuman, 12 ta shahar va 4 ta shaharcha joylashgan bo'lib, ma'muriy markazi — yirik Qarshi shahridir. Qarshi shahri 2700 yildan ortiq tarixga ega qadimiy shahar bo'lib, O'rta Osiyo savdo va madaniyat yo'llarida muhim o'rin tutgan.

Viloyat hududi asosan Qashqadaryo botig'ini o'z ichiga olgan; shimol, sharq va janubi-sharqdan Zarafshon hamda Hisor tog' tizmalari bilan o'ralgan. Tog'lar bilan tekisliklar orasini adirlar egallagan. Tekislikning katta qismi g'arbda Sandikli va Qizilqum cho'llari bilan tutashgan Qarshi cho'lidan iborat. Iqlimi kontinental: qishi nisbatan yumshoq, yozi esa uzoq

(155–160 kun), issiq va quruq. Yanvarning o'rtacha temperaturasi  $0,2^{\circ}$  dan  $1,9^{\circ}$  gacha, iyulniki esa  $28^{\circ}$ – $29,5^{\circ}$  ni tashkil etadi.

Qashqadaryo viloyati ko'hna tarixi, qadimiy madaniyat yodgorliklari bilan mashhur. Viloyatdan buyuk olimlar, adib va shoirlar, mashhur san'atkorlar yetishib chiqqan. Abu Sa'd Abdulkarim as-Sam'oniyning "Kitob al-Ansob" asarida VIII–XII asrlarda yashab o'tgan 180 ga yaqin nasaflik olim va shoirlar zikr etiladi. Shahrisabzdagi Oqsaroy majmuasi (1380–1404-yillar), Ulug'bek madrasasi (Gumbazi Sayidon, 1437-yil) va boshqa tarixiy obidalar viloyatning qadimiy madaniy merosini namoyon etadi.

Dehqonobod tumani — Qashqadaryo viloyatining janubiy-sharqida joylashgan, tarixi boy va tabiati go'zal tuman bo'lib, 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Tuman shimoliy-g'arbda G'uzor tumani, shimoliy-sharqda Qamashi tumani, janubiy-sharqda Surxondaryo viloyatining Boysun va Sariosiyo tumanlari, g'arbda esa Turkmanistonning Lebap viloyati bilan chegaradosh. Tumanning umumiy maydoni  $4,0$  ming  $\text{km}^2$  bo'lib, 2025-yil holatiga ko'ra aholisi  $162,7$  ming kishini tashkil etadi. Ma'muriy markazi — Qorashina shaharchasi. Tumanning relief tuzilishi xilma-xil: o'rtacha balandlikdagi tog'lar, (Hisor tog' tizmasining g'arbiy tarmoqlari — Bobosurxok, Qorasirt) past tog'lar (Oqtosh, Sayfi, Kesik, Usmontov, Tepaqo'rg'on) va tog' oldi qiya tekisliklaridan iborat. Tuman hududidan G'uzordaryo irmoqlari: Katta o'radaryo va Kichik o'radaryo oqib o'tadi. Tumanning janubiy-g'arbiy qismida yozda qurib qoladigan Qizilcha va Gajaksoy kabi soylar ham bor.

Dehqonobod tumanida neft, gaz, osh tuzi (Boybichakon, Govxona), kaliy tuzi (Odamtosh, Tepaqo'ton) va qurilish materiallari (ohaktosh, shag'al, gips) kabi tabiiy boyliklar mavjud. Tuman hududida archa, zarang, uchqat o'sadi. Past tog' etaklarida pistazorlar ham uchraydi. Iqlimi kontinental: yanvarning o'rtacha temperaturasi  $-0,6^{\circ}\text{C}$ , iyulniki  $28,4^{\circ}\text{C}$  ni tashkil etadi, yiliga o'rtacha  $277$  mm yog'in tushadi.

Dehqonobod — so'zma-so'z tarjimada "dehqonlar obod bo'lgan joy" degan ma'noni anglatadi. Bu nom bilan tuman ahli qadimdan dehqonchilik va bog'dorchilik bilan shug'ullanib kelganini aks ettiradi. Tuman hududida 1 ta shaharcha (Qorashina) va 14 qishloq fuqarolari yig'ini mavjud bo'lib, ularda yuzlab qishloq va mahallalar joylashgan.

Beliboyli qishlog'ining geografik joylashuvi Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumaniga qarashli Beliboyli qishlog'i viloyatning janubiy-sharqiy qismida, Hisor tog' tizmasining g'arbiy etaklarida joylashgan. Qishloq to'rt tomondan turli tabiiy va ma'muriy chegaralar bilan o'ralgan: **Shimoliy tomondan** Qorashina shaharchasiga tutash adirliliklar va yaylov yerlari bilan chegaralanadi. Bu hududda tuman darajasidagi asosiy infratuzilma ob'ektlari joylashgan. **Sharqiy tomondan** Hisor tog' tizmasining baland tog'li hududlari va qir-adirlari bilan chegaradosh. Sharqiy yo'nalishda Oybek qishlog'i kabi tog'li qishloq va mahalliy yaylovlar joylashgan. **G'arbiy tomondan** Beshbuloq shaharchasi va tuman hududidan o'tuvchi xalqaro ahamiyatga ega M-39 "Almati-Toshkent-Termiz" avtomagistrali yo'nalishi bilan chegaralanadi. **Janubiy tomondan** Surxondaryo viloyati (Boysun tumani yo'nalishi) hamda tog' oldi hududlari bilan chegaradosh. Janubiy chegara asosan tabiiy relief — tog' tizmalari orqali o'tadi.

Beliboyli qishlog'ida istiqomat qiluvchi, uzoq yillar davomida pedagog sifatida faoliyat ko'rsatgan 69 yoshli Keldiyev Bahodir Almatovichning ma'lumot berishicha, "Beliboyli" so'zi "Beli bog'langan tosh" yoki "Belbog'li tosh" degan ma'noni anglatadi. Rivoyatlarga ko'ra, qishloq aholisi qachonlardir "Beli bog'langan tosh" deb atalgan qadimiy toshni topib, tepalikka ko'mishgan. Shundan so'ng bu tosh ko'milgan joy atrofi o'ralib, belgi qo'yilgan. Keyinchalik qishloq aholisi vafot etgan aholi vakillarini shu belgilangan joyning atrofiga dafn etishni boshlagan.

Bunday toponimlarga O'zbekiston hududida ko'p uchraymiz: ular odatda qadimiy tarixiy yodgorlik, ajdodlar yashagan joy yoki muqaddas ob'yektlar bilan bog'liq bo'lib, xalq xotirasida

avloddan avlodga o'tib keladi. "Beliboyli" nomi ham aynan shunday xususiyatga ega bo'lib, qishloq tarixini o'zida mujassam etgan.

Beliboyli hududida qadimdan aholi yashab, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiq va bog'dorchilik bilan shug'illanib kelgan. Qishloq hududidan "Kichik o'ra" nomli kichik daryo oqib o'tadi va aholining turar joylari bu daryoning o'ng va chap sohillari bo'ylab joylashgan. Aholi daryo bo'ylarida kichik bog'lar va tamorqalar barpo qilgan. Bog'lardan ho'l mevalar — olma, nok, gilos, shaftoli, o'rik, yong'oq yetishtiriladi. Poliz mahsulotlaridan kartoshka, sabzi, piyoz, pomidor, bulg'or qalampiri, lavlagi, makkajo'xori kabi o'simliklar yetishtiriladi. Shuningdek, lalmi bug'doy, arpa, no'xat va zig'ir ekinlarini yetishtirish an'anasi ham mavjud.

Hunarmandchilikning bir necha tarmoqlari taraqqiy etgan. Savdo-sotiqda o'zlari yetishtirgan dehqonchilik, hunarmandchilik va poliz mahsulotlari bilan savdo-ayirboshlash amalga oshiriladi. Bu an'analar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, qishloq iqtisodiyotining asosini tashkil etadi.

Beliboyli qishloq fuqarolari yig'ini o'zida 30 dan ortiq qishloqlarni birlashtiradi. Bularning eng yiriklari: Terskay, Galamulla, Jaxmat, Makon, Oqtosh, Jiydabuloq, Tilla-tepa, Guliston, Quvvat, Hoji-Ibragim, Katta Avjun, Kichik Avjun, Katta qishloq kabi qishloqlardir. Bu qishloqlar uzoq yillardan buyon shunday atalib kelinadi. Har bir qishloqning nomlanishi ham tarixiy ahamiyatga ega.

Beliboyli hududida 10 yaqin maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda 41-42-66-82-11-43-60-61-maktab ta'lim maskanlari faoliyat yuritib keladi. Hududda Dehqonobod tuman 2-son texnikumi ham mavjud bo'lib yoshlarning kasb va bilim cho'qqilarini egallashlariga xizmat qilib kelmoqda. Mazkur ta'lim muassasalarining mavjudligi qishloq aholisining ma'naviyat va ma'rifatga bo'lgan intilishini va ta'lim sohasiga e'tiborini yaqqol aks ettiradi.

Qishloq nomiga mengzab "Beliboyli ota qabristoni" deb nomlangan muqaddas qabriston mahalliy aholining ruhiy va ma'naviy hayotida katta o'rin tutadi. Har yili 9-may — "Xotira va Qadrlash kuni"da bu qabristonga dafn etilgan ajdodlarini ziyorat etib, ularning xotiralarini ehtirom bilan eslab, qur'on tilovati qilish uchun avlodlar tashrif buyuradilar. Bu an'ana qishloq aholisining qarindoshlik va vatanparvarlik tuyg'ularini mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Keyinchalik Beliboyli ota qabristoni nomi bilan "Beliboyli ota" jome masjidi qurildi. Masjid XVIII asr boshlarida, hozirgi Oqtosh mahalla fuqarolari yig'iniga qarashli Terskay qishlog'ida, qishloq eshoni (oqsaqoli) tomonidan qurilgan. Masjid sho'rolar istilosigacha faoliyat yuritgan; masjid imomlari Buxoro Mir Arab madrasasida ilm olgan buyuk zotlar bo'lgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, 1992-yilda qayta qurilib ishga tushirildi. 2023-yilda masjid qayta zamonaviy usulda, 100 000 nafar namozxoniga mo'ljallab qurib bitkazildi. Hozirgi kunda Imom Buxoriy nomidagi Islom institutini tamomlagan Esonqulov Abdurashid domla 2001-yildan buyon imom-xatiblik qilmoqda.

Beliboyli qishlog'i aholisi asosan bir nechta qarindosh urug' va avlodlardan tashkil topgan bo'lib, bu yerda urug'chilik tizimi hanuzgacha muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Aholi asosan o'zbeklarning 96 urug'i orasidagi Qo'ng'iro't urug'iga borib taqaladi. O'zbek xalqining urug'iy tuzilishi tarixan quyidagicha bo'lgan: qabila, urug' va avlod tizimi ijtimoiy hayotning asosini tashkil etgan va turli qabilalar o'rtasida yer-suv, savdo hamda nikoh aloqalarini tartibga solgan. Qo'ng'iro't urug'i nomi haqida turli rivoyatlar mavjud. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, bosh bobomiz asl ismi Mamatqul bo'lib, laqabi Gudraybiy deb atalgan. Unga "Qo'ng'iro't" nomi berilishiga sabab, elga mashhur qo'ng'ir rangli oti bo'lganligi deb rivoyat qilinadi. Bu ot o'z egasiga katta shuhrat keltirgan, shu boisdan ham undan tug'ilgan avlod "Qo'ng'iro'tlar" nomini olgan. Mamatqul boboning 5 ta o'g'li bo'lgan: birinchi xotinidan 3 ta, ikkinchi xotinidan 2 ta.

Birinchi xotinidan tug'ilganlar: 1) Aliqulbekjon (Qo'shtamg'alilar), 2) Jonqulbekjon (Voh tamg'alilar), 3) Xaydarqulbekjon (Qonjig'alilar). Ikkinchi xotinidan tug'ilganlar: 4) Mullamurod (Oyinnilar), 5) Jiyanbek (Tortuvlilar).

Beliboyli aholisi kelib chiqishi Qo'shtamg'alilarga borib taqaladi. Qo'shtamg'alining o'zi ham 16 ta urug'ga bo'linadi. Bular: Qoraqasmoq, Qoraqolpoq, Ko'chaxo'r, To'langit, Utroqli, Kal, Tilavmat, Mavlush, Kulobi, Ko'sa, Chol, Barmoq, Savribuzar, Sambura, Bandikuchuk, Oqpichoq. Ana shu urug'iy birlik asosida mahalliy aholi qardosh bo'lib, o'zaro do'stona va inoq hayot kechirib kelmoqda. Urug'chilik tizimi nafaqat qarindoshlik munosabatlarini, balki mehnat taqsimoti, o'zaro yordam va jamiyat boshqaruvini ham tartibga solib kelgan.

### Xulosa

Beliboyli qishlog'i o'zining boy tarixi, qulay geografik joylashuvi va mustahkam ijtimoiy tuzilmasi bilan ajralib turadi. Qishloq Qashqadaryo viloyatining qadimiy an'analarga boy Dehqonobod tumanida joylashgan bo'lib, mahalliy tarix va madaniyatning jonli namunasini o'zida mujassam etgan. Qishloq aholisi asosan Qo'ng'iro't urug'iga mansub bo'lib, urug'chilik tizimi hamon ijtimoiy hayotda muhim o'rin tutadi.

Tabiiy resurslarga boy hududda dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan bo'lib, aholi o'z mehnati bilan turmush darajasini ta'minlab kelmoqda. Tarixiy va madaniy merosning saqlanib qolganligi — Beliboyli ota qabristoni, jome masjidi va urug'chilik an'analari — Beliboyli qishlog'ining o'ziga xosligini yanada oshiradi. Qishloqdagi ta'lim muassasalari esa yosh avlodning bilim olishi va kelajakda o'z hududini yanada rivojlantirishiga xizmat qilmoqda.

Ushbu maqola Beliboyli qishlog'ini o'rganish yo'lidagi birinchi ilmiy urinish sifatida kelajakda chuqurroq tarixiy-etnografik tadqiqotlar uchun zamin yaratadi. Mahalliy tarixni qog'ozga tushirish, uni ilmiy muomalaga kiritish — bu faqat qishloq tarixi emas, balki butun O'zbekiston xalq tarixining bir qirrasini saqlab qolishdir.

### Foydalangan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. — Toshkent: O'zME nashriyoti, 2000–2005.
2. Yangiboyev M. Qashqadaryo viloyati geografiyasi. — Qarshi, 1993.
3. Ravshapov P. Qashqadaryo tarixi. — Toshkent, 1995.
4. Toshqulov K. Qadimiy va navqiron Dehqonobod. Birinchi va ikkinchi kitob. — Toshkent: Muharrir nashriyoti, 2012–2015.
5. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. — Toshkent, 1998.
6. Shoniyozov K. Qang' davlati va qang'lilar. — Toshkent: Fan, 1991.
7. Keldiyev Bahodir Almatovich (69 yosh) — og'zaki manba, Beliboyli qishlog'i, 2024-yil.
8. Dala tadqiqoti asosida.